



QUALITIES OF THROAT IN THE UPBRINGING AND EDUCATION OF YOUTH

Abdurashid Mirzakhmedov

*Professor of Namangan State Technical University
Namangan, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Spirituality, economic education, conscience, educational thrift, spirituality, national ethics.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: The article is devoted to the formation of the quality of thrift of youth in the culture of production and consumption in the conditions of the consumer society of Uzbekistan. Thus, pedagogical problems and solutions for the formation of a culture of thrift of students of higher technical education of the Republic of Uzbekistan is the most pressing topic of research. In this regard, the author substantiates the ethics of thrift as the most important factor in the economic education of student youth in the context of caring for a person and quality education. The quality of higher education is interconnected with the socialization and professionalization of youth in the family.

YOSHLARNING TA'LIM TARBIYASIDA TEJAMKORLIK FAZILATI

Abdurashid Mirzaxmedov

*Namangan davlat texnika universitetining
professori
Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, iqtisodiy tarbiya, tejamkorlik ta'limi, ma'naviyat va milliy ma'naviyat.

Annotatsiya: Maqola O'zbekistonda axolining iste'molchilik jamiyati sharoitida ishlab chiqarish va iste'mol madaniyatida yoshlarning tejamkorlik fazilatlarini shakllantirishga bag'ishlangan. Bilaks, texnika oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarning tejamkorlik madaniyatini shakllantirishga oid tarbiyaviy muammo va uning yechimiga doir pedagogik jihatlar o'ta dolzarb tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Shu bois, muallif O'zbekiston hukumatining inson qadr-

qimmat va ta'lim sifati nuktai nazaridan talabalarning iqtisodiy tarbiyasida tejamkorlik axloqini tarbiyalash mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim omil ekanligi asoslagan. Oliy ta'lim sifati tarbiya bilan uyg'unligi oilada yoshlarning ijtimoiylashuv va kasbiylashuvning uyg'unligidan boshlanadi.

КАЧЕСТВА БЕРЕЖЛИВОСТИ В ВОСПИТАНИИ И ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЁЖИ

Абдурашид Мирзахмедов

*Профессор Наманганского государственного технического университета
Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Духовность, экономическая воспитания, совесть, образовательная бережливость, духовность национальная этика.

Аннотация: В статье посвящено формированию качества бережливости молодежи в культуре производства и потребления условиях общества потребления Узбекистана. Тем самым педагогических проблем и решения по формированию культуры бережливости учащейся молодежи высшего технического образования Республики Узбекистан является самой актуальной темой исследования. В этой связи, автором обосновано этика бережливости как важнейший фактор в экономической воспитании студенческой молодежи в контексте заботы о человеке и качественного образования. Качества высшего образования взаимосвязана социализацией и профессионализацией молодежи в семье.

Kirish

Zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning postindustrial taraqqiyot to'liqini istemolchilik jamiyati munosabatlariga o'tishga olib keldi. Natijada sanoat ishlab chiqarishining beqiyos rivoji mahsulot va xizmatlarning bozor munosabatlari sharoitida keskin raqobati tufayli mahsulotlarni sotishda iste'molchilik siyosatini amalga oshirmoqda. Har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti axolining iste'mol munosabatlarida sog'lom dunyoqarash bilan tejimli ho'jalik yuritish va iste'molda zaruriy tovar va xizmatlardan foydalanishni nazarda tutadi. G'arbiy Yevropada iste'molchilik jamiyatining ijtimoiy jihat va xususiyatlari Erix Fromm va Jon Bodriyyar tomonidan atroflicha talqin va taxlil qilingan [1; 13].

O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan barqaror taraqqiyotning maqsadlarini ko'zlashi yoshlarning yuksak ma'naviyati bilan bevosita bog'liq

bo'lib, oliy ta'limning texnika yo'nalishlaridagi yoshlarning tejamkorlik axloqini shakllantirish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'lim va tarbiyaga doir masalada «Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak»ligi bilan yoshlarning tejamkorlik axloqini dolzarbligini asoslash mumkin [8]. Yoshlarning texnika ta'limdagi kasbiylashuv va ijtimoiylashuvida axloqiy ma'naviyatning muhim jihati zamonaviy pedagogikaning o'ta nozik masalasi hisoblanadi. Chunki oliy ta'limning kasb ta'limida ijtimoiy fanlarning o'quv jarayoniga kiritish bilan bog'liq masalalarning bahsi bilan izohlash mumkin [4, s. 25].

Yoshlarning tejamkorlik madaniyati oilada ota-onining xo'jalik yuritishda farzandlarning oilaviy ishlar bilan band qilish, ota-ona bolaga mehnat tarbiyasi orqali axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga qaratadi. Farzandlar oiladagi muhitda o'zining fuqarolik fazilatlarini shakllantirar ekan, oila shaxsning tejamkorlik fazilatini boshlang'ich saboqlarini beradi. Bolaning mehnatsevarlik fazilatlarini oilaviy mulkni qadrlash, asrab avaylash orqali oilaning moliyaviy holatini barqarorligida o'zining ulushini qo'shishga intilish bilan axloqiy kamol topadi.

Ma'lumotlar va metodlar

Jamiyatning taraqqiyotida ishlab chiqarish va iste'mol madaniyati o'zbek halqining o'ziga xos ijtimoiy madaniyati sifatida "halol luqma", "peshona teri" kabi turmush tamoyillarida shakllantirilgan. Shu bilan birga muqaddas kitob va manbalarda energiya zaxiralarini tejab tergap sarfu-harajati, uvol qilmaslik kabi hikmatlar bilan milliy iste'mol madaniyati qaror topgan. Shu ma'noda ishlab chiqarish va iste'mol tajribasining ilmiy-nazariy tadqiqoti tarixiylik va mantiqiylik asosida ijtimoiy-madaniy yondashuvlarni talab etadi. Jamiyatning hayotida erishilgan yutuqlar odamlarning "Osiyocha ishlab chiqarish" shakli, iste'mol madaniyatini etnokonfessional sabr-toqat falsafasi bilan mustahkamlagan. Shu bois yoshlarning iste'molchilik fazilatlarida tejamkorlik madaniyatining rivojlanishi dialektikaning umumnazariy metodlarida o'z yechimini topadi. Sharq halqlari oila va nikohda iqtisodiy bilimlarning milliy merosi vorisiylik tamoyillarida tahlil etilgan.

Natija va muhokamalar

Davlatning iqtisodiy siyosatining natijasi yoshlarning bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishishda nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyasida iqtisodiy tafakkur tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda iqtisodiy tafakkurning yoshlar tarbiyasida tejamkorlik axloqi bilan amaliy namoyon bo'lishi ilmiy adabiyotlarda e'tirof etilgan [7]. Talaba yoshlarning iqtisodiy dunyoqarashini shakllantirish, ularda ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik faoliyatida tejamkorlik tarbiyasi texnika ta'lim tizimida tarbiya bilan uyg'unligi darkor. Talaba yoshlarning tejamkorlik axloqi MDH davlatlari ijtimoiy fanlar sohasida maktab ta'limida faol tadqiq etilgan [12, s. 104]. Bizning ilmiy tadqiqotimiz

texnika ta'limi tizimi yo'nalishlarida talabalarning tejamkorlik odobini tarbiyalash masalasi bilan o'ziga xos ilmiy dolzarblik kasb etadi.

MDH olimlari tomonidan farzand tarbiyasida tejamkorlikka oid muammo ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan korhona va tashkilotlarda menejment faoliyatini yanada takomillashtirishga oid ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Mazkur maqolalar Rossiya iqtisodiyotini dolzarb muammosi sifatida ilmiy jamoa tomonidan faol o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning maqsadi "tejamkor ishlab chiqarish" va "tejamkor boshqaruv" muammolariga bag'ishlangan [4; 9]. Mualliflar ishlab chiqarish samaradorligi, harajatlarni qisqartirish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llashga urg'u bersalarda, lekin korxona xodimlarining ma'naviy-axloqiy tejamkorlik fazilatiga e'tibor qaratmaganlar.

Ikkinchi gurux tadqiqotlarda korxonalarning boshqarkuvida boshqaruv sifatiga urg'u berib, ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotishning tashkilining ratsional jihatlarini hal qiluvchi omil sifatida baholanadi [11]. Shu bilan birga ishlab chiqarishni boshqaruvda innovatsion texnologiyalar bilan birga xodimlarning manfaatdorligi masalasi ham ishlab chiqarish va boshqaruv sifatining tejamkorlik omili taxlillari amalga oshirilgan. Bu masalada alohida "tejamkorlik, samaradorlik - manfaatdorlik – farovonlik" modeli sifatida masala ilmiy muhokamaga qo'yilgan [2, 37-b]. Muallif tadqiqotida modellashtirish, unda tadqiqot obyekti sifatida manfaatdorlik omilini obyekt sifatida o'rgansa-da, lekin xodimlarning ishlab chiqarish va boshqaruvdagi ishtiroki moddiy omil bilan cheklanishini baxsli, deb hisoblaymiz.

Uchinchi guruh tadqiqotlar dunyoning bir qator xalqlarida yer-suv mulklarning mo'l-ko'lligi sharoitida mavjud tabiiy resurs va mulklar, moliyaviy manbalardan xisob-kitob qilmay harajat qilish, boylarning saxiyligi, "qo'li ochiqligi" kabi fazilatlar ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga "xasislik", "ziqnalik" yoki "pishiqlik" haqidagi iboralar ham odamlarning tejamkorlikka oid munosabatlarini baholashda ishlatilgan. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda axolining ijtimoiy hayoti va fuqarolik munosabatlarida tejamkorlik insonparvarlik qadriyati ekanligini olg'a surish holati ham uchraydi [10]. Biz muallif yoshlarning tejamkorlik madaniyati oziq-ovqat yetishmasligi, axoli mol-mulk iste'molining ortib borishi, tabiiy resurslarning ekologik muhofazasi kabilar doirasida tadqiq etish bir qator bahslarga sabab bo'lishi mumkin, deb o'ylaymiz.

Yoshlarning tejamkorlik fazilatlariga oid adabiyotlar taxlil va talqinlarida shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy taraqqiyotida oila, maktab va oliy ta'lim tizimi yaxlit shaxsning ijtimoiylashuv va kasbiylashuv modeli sifatida ilmiy tadqiq etilmaganligini ko'rsatadi. Shu ma'noda masalaning o'ta murakkabligi fanlararo tadqiqini anglagan holda maqolada ijtimoiy falsafiy yondashuvni amalga oshirish muhim ilmiy qimmat kasb etadi.

Iste'molchilik jamiyatida yoshlarning iste'mol qobiliyati tejamkorlikka asoslangan holda bo'lishining ilmiy talqinlarida induksion va deduksion uslubiyat ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarda maqsadga muvofiqdir. Chunki, oliy ta'lim tizimida yoshlarning kasbiylashuv va ijtimoiylashuvi ijtimoiy jarayon bo'lib, oila, maktab va oliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlikda tizimli tadqiqini fan talab etadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda ilmiy natijalarning ishonchlilikini ta'minlash uchun dialektikaning universal qonun va kategoriyalari uslubiy manba rolini o'ynadi. Ta'limning insonparvarligi bilan birga tarbiyaning qat'iy zaruriyati milliy falsafada yoshlarning tejamkorlik madaniyatining tarbiyasi psixologik fanlarning yutuqlarini ham o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston oliy texnika ta'limida yoshlarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish, ayniqsa to'qimachilik sanoati sohasiga yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda tejamkorlik ko'nikma va malakalarining tarbiyasi o'zbek xalqi boy ma'naviy-axloqiy merosiga asoslanishi bilan merosiylik metodologik yondashuvini taqozo etadi. Chunki, har qanday tarbiyada jamiyat ijtimoiy hayoti barcha sohalarining uygunligi ta'lim va tarbiyada o'zini namoyon etishi umuminsoniy tarbiya pedagogikasidir. Shu boisdan tadqiqotning usul va ma'lumotlar bazasi milliy pedagogikada yoshlarga ajdodlarning ma'naviy sohadagi iqtisodiy bilim va tajribalarini vorisiylik metodiga tayanishi ham ilmiy natijalarning aniqligini ta'minlaydi. Tejamkorlik xodimning axloqiy fazilati bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshirish bilan yoshlarning moliyaviy rag'bati ila ishlab chiqarish faolligini o'stiradi. Har qanday boylikning manbai mehnat bo'lishi bilan birga tejamkorlik uning muhim negizi ekanligini ta'lim jarayonida talabalarning anglashi tarbiyaning natijadorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga mehnat tarbiyasi ishlab chiqarishda talabaning ishtirokidagi tarbiya bilan uzviy bog'lanishi pedagogikada sinovdan o'tgan [5, 96-b].

O'zbek xalqi milliy mentalitetida tejamkorlikning ziddi sifatida isrofgarchilik illati qabul qilinib, baxt-saodatga erishishda iqtisodiy omilga oid ilohiy manbalar, maqol va matallarda alohida urg'u berilgan. Jumladan, tejamkorlikka oid tarbiya hikmatlari: "Boylik ushoqdan yig'ilar", "Don ayagan donga yetar, Non ayagan — nonga", "Yig'sang yetasan, sovursang ketasan", "Ozni beja, ko'pni teja", "Tejab yegan darmonda, tejamagan — armonda" kabi maqollarda o'z ifodasini topgan. O'zbek halqining milliy an'ana va qadriyatlarida farzand tarbiyasining barcha bosqichlarida energiya tejamkorligi maqsadlariga mos ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, oliy ta'limning texnika sohasidagi sotsiologik tadqiqotlar energiya tejamkorligi (elektr, gaz va suv) masalasidagi muammolarning o'ta dolzarbligi bilan masalani izohlash mumkin [14, 182-b].

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi axolining bandligini ta'minlash, ularning kasbiy moslashishi, ayniqsa zamonaviy kasblarga qayta tayyorlash, kichik biznes, xususiy mulkning rivoji uchun moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashda ijtimoiy

ragʻbatlantirish siyosati davlat iqtisodiyotini ritvojida tejamkorlikka olib keladi. Bu hol davlat byudjeti mablagʻlarini oʻrinli va manzilli sarflanishi, korrupsiya kabi illatlardan saqlashda axoli ijtimoiy faolligi bilan taʼminlanishi mumkin. Shu maʼnoda tejamkorlik energiya manbalarini samarali foydalanish bilan birga uni tejash, gaz, suv, elektr energiyasini isrof qilishni oldini olish bilan iqtisodiy oʻsishni taʼminlash mumkin. Demak qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ham tejab foydalanish odobini tarbiyalash amaliy ijtimoiy vazifaga aylanmoqda [2; 14, 187-b].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi zamonaviy pedagogik ilmiy tadqiqotlarda taʼlim va tarbiya obyektlari sifatida maktab oʻquvchilari obyekt qilib olingan boʻlsa-da, lekin oliy taʼlim talabalarining iqtisodiy tafakkuri bilan birga tejamkorlik axloqi ilmiy tadqiqot predmeti qilib olinmagan. Shu maʼnoda Fargʻona vodiysi oliy taʼlim tizimidagi texnika yoʻnalishlaridagi yengil sanoat sohasi talabalarining maʼnaviy-axloqiy ijtimoiylashuvida tejamkorlik madaniyatini shakllantirish axloqiylik bilan birga kasbiy jihatlarining yangi qirralari aniqlandi. Yengil sanoat texnologiyasida yoshlarning tejamkorlik madaniyati birinchi bosqichdan boshlab bitiruvchi kursgacha tizimli ravishda tashkili, “ustoz-shogird” tamoyilida shakllantirish ijobiy natija berishi tasdiqlandi. Yoshlarning tejamkorlik madaniyati ilk bosqichda ustozlarning taʼlimda oliygohning barcha oʻquv bino va inshoot, oʻquv laboratoriyalarida kommunal taʼminot, ayniqsa elektr, gaz, suv kabi resurslardan oqilona foydalanish koʻnikmalaridan boshlanishi darkor [7, 218-b]. Bizning boshlangʻich tadqiqot natijalarimiz iqtisodiyot taʼlim yoʻnalishi bilan birga texnika taʼlimi tizimida yoshlarning kasbiylashuvida “Tejamkorlik kompetensiyasi” muammosini ilmiy gipoteza sifatida muhokamaga qoʻyishga imkon beradi.

Yoshlarning tejamkorlik fazilatlarini koʻp holatda iqtisodiyot va boshqaruv sohasi, pedagogika taʼlim yoʻnalishlarida ilmiy tadqiqot predmeti boʻlsa-da, lekin shaxsning ilmiy bilish kompetensiyasi, maʼnaviy-axloqiy sifati jihatidan axloqiylik doirasida ilmiy ishlarning mavzusi qilib olinmagan. Shu bois maqola yoshlarning tejamkorlik psixologiyasini ilmiy bilish, odamlarning turli mulk shakllariga turlicha munosabat, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda mahsulotlarning ishlab chiqarish, logistika bilan birga eng yangi texnologiyalarga tayanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida ish yuritish madaniyatini nazarda tutadi. Demak, bu masala ijtimoiy-gumanitar fanlarda insonparvarlik qadriyati sifatida muhokamaga qoʻyilishi, texnika taʼlimi tizimi misolida asoslanishi ilmiy yangi tadqiqot ekanligini tasdiqlaydi.

Yengil sanoat taʼlimi yoʻnalishining oʻquv mashgʻulotlarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bevosita bogʻlash, unda mahsulotlarni oʻta tejamkorlik tamoyilida foydalanish bilan talabada iqtisodiy tafakkurni oʻstiriladi. Taʼlimning tarbiyadan ajratib boʻlmazligi, talabaga “tiyinni iqtisodiy soʻmni hosil qilishi” kabi pragmatik dunyoqarashga ijtimoiy moʻljali muhim pedagogik omildir. Zero, oʻquv mashgʻulotlarida dastgoh, oʻzga resurslarni nooʻrin foydalanish, mahsulotlarni ishlatishda chiqindisiz “Taʼlim novatsiyalari”ni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Biz tavsiya

etayotgan novatsiya ta'limda yoshlarning mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan chuqur ilmiy-nazariy bilimlarga ega bo'lish mahsulotni to'la tasavvur etish ratsional darajada mahsulotni tejash imkonidir.

Sotsiologik tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimi yoshlari orasida o'tkazilgan kuzatishlarda o'quv binolaridagi elektr chiroklarini 75 talabadan faqat 16 talaba o'chirib qo'ydi. Ulardan 30ga yaqini o'chirish kerakligini tushunishi, lekin binoda o'zga talabalar borligi uchun o'chirmaganligini ma'lum qildi. So'rovda ishtirok etgan talabalarning qolgan qismi o'chirishni o'ylab ham ko'rmaganligi, chiroqni yoniq turishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar. Bu hol oliy ta'lim tizimi talabalari orasida iqtisodiy bilimlar bilan birga oddiy tejamkorlik falsafasi haqida suhbatlar o'tkazish, bekorga yonib turgan gazni o'chirish, vodoprovodda oqayotgan suvni to'xtatish zaruriyatini tushuntirishga to'g'ri kelishini namoyon etmoqda.

Tejamkorlik ishlab chiqarish, ya'ni iqtisodiyotining muhim jihatini bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning ma'naviy axloqiy, iqtisodiy-moliyaviy jihatdan texnogen sivilizatsiya yutuqlarini egallashi, "daromad-kapital" munosabatlarning o'ziga xos rentabellik ko'rsatkichi hamdir. Oliy ta'lim texnika yo'nalishi talabalariga amaliyotda korxonaning moddiy-moliyaviy harajatlarini foydali, samarador maqsadlarga yo'naltirish, pul mablag'larini ratsional sarflash malakasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashuv tarbiyaning ijtimoiy vazifasidir [3, s.267].

Xulosalar

O'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti tabiat resurslari, oziq-ovqat va o'zga hom ashyolarni tejab tergap foydalanish bo'yicha etnokonfessional madaniyatga erishgan. O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy dunyoviy davlat qurilishi yoshlarning kasbiy ta'lim va tarbiyasida milliy ma'naviyatning iqtisodiy bilimlarini tajriba sifatida avlodlarga qoldirish pedagogikaning tarbiyaviy funksiyasidir.

O'zbek xalqi hayotida farzand tarbiyasi bolalikdan boshlab oilaviy mulkni asrab avaylash, xo'jalik yuritishda asbob anjomlardan oqilona foydalanish, yer-mulklardan oila byujetiga daromad olishga erishish, moliyaviy mablag'larni saranjom-sarishta ishlatish ko'nikma va malakasini shakllantirishni ko'zda tutadi. Ota-onalarning tarbiya sohasida namunasi farzandlar uchun ibrat bo'lar ekan, oilaviy tejamkorlik omili ham ota-onalardan farzandlarga meros bo'lib o'tishi an'anadir. Bu merosni ular tushuntirish ishlari bilan o'zining namunasida farzandlarga ijtimoiy tajriba shaklida qoldiradi.

Tejamkorlik shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi bo'lib, xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun tejamkorlik inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab olishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvda hisob-kitobli, foyda va zararni atroflicha taxlili asosida ish yuritish bilan xo'jalik boshqaruv xususiyatni ham namoyon etadi. O'qiyotgan yoshlar hayotning ma'no mazmuni o'zlarining ota-onalariga munosib farzand bo'lishi axloqiy mezon bo'lib, sog'lom

e'tiqod ila har bir tiyin, ushoq nonni qadrlashga o'rganishi lozim. Qobil farzandlar ota-onadan qolgan mol mulklarni tejab-tergab yanada iqtisodiy o'sishga erishsa, nodon bolalar isrofgarchilik bilan ularning peshona teri bilan topilgan mollarni kasod qilar ekan.

Yoshlarning ta'lim tizimida iqtisodiy tafakkurining rivoji oilaviy tarbiyaning mantiqiy o'zluksiz tarbiyaviy bosqichi, ularning o'ziga xos kasbiy tayyorgarlik sifat bo'yicha reyting ko'rsatkichi, kelgusida oila qurishga tayyorgarlik, tadbirkorlikda moddiy va moliyaviy resurslarni saranjom-sarishta oqilona harajati, deb hisoblaymiz. Bizning tadqiqotlarimizda muxandislik-texnologiya ta'limi tizimi yoshlari orasida moddiy-moliyaviy sabablar tufayli oilaviy beqarorlik kuzatildi. Shu boisdan yoshlarning oilaviy turmushining barqarorligini ta'minlashda ta'limdagi tejamkorlik tarbiyasi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Talabanning tejamkorlik fazilati axloqiy tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning fe'l atvorida tizimli avishda tabiyalanadigan kasb-hunarga qiziqish orqali iqtisodiy tafakkurda hosil bo'ladigan psixologik rivojlanish jarayonidir. Shu ma'noda oilaviy turmush tarzi, balaning jinsi bilan bog'liq ijtimoiy axloqiy vorisiylik jihatiga ham egadir.

Oliy ta'lim texnika yo'nalishi talabalari o'quv jarayonida ilk bosqichdan bitiruv kursigacha "Ta'limda chiqindisiz novatsiya" tamoyilida ishning tashkili yoshlarning tejamkorlik qobiliyatlarini yuksaltiradi. Shu ma'noda nazariy fanlarning bilimlari labarotoriya mashg'ulotlarida ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Chunki, talabalarining nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashg'ulotlardagi faolligi mahsulot ishlab chiqarishda oqilona yuksak ma'naviy fazilatlar bilan tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Бодрийяр Ж. Общество потребления. Его мифы и структуры. -М., Инфо-Х. 2006. -269 с.
2. Болтаев Ш. "Тежамкорлик самарадорлик-манфаатдорлик-фаровонлик" моделининг тузилиши. -Бухоро: БухДУ илмий маркази. -Том 5. - № 5 (2021). -Б.36-42
3. Замятина В. В. Воспитание бережливости// Молодой ученый. -2019. -№ 46 (284). -С. 266-268
4. Лыскова И. Е. Бережливость как социокультурный феномен// Экономика и современная менеджмент: теория и практика. - 2015. -№4 (48.1). -С. 24-28.
5. Макаренко А. С. О воспитании. -М.: Политиздат. 1990. - 415 с.
- 6 Мирзахмедов А. М. Воспитание как предмет философии // Алма матер. Вестник вузов. -2021. -№ 4. -С.24-31.
7. Мирзахмедов А., Элмиров К. Тарбияга ижтимоий ёндашув// НамДУ Ахборотномаси. -2021. -Махсус сон. -Б. 216-221.

8. Мирзиёев Ш. М. Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги маъруза // Халқ сўзи. -2023. -22 декабрь.
9. Невгод Е. А. Бережливое производство и стратегическое планирование // Научные исследования: от теории к практике. –2015. –№ 5 (6). –С. 355–356.
10. Родоман Б. Бережливость как гуманистическая ценность// <https://proza.ru/2019/05/13/1462> (Мурожаат санъаси 04.12.2023)
11. Стукач В.Ф., Волкова И.А. Управление качеством. -Омск.: ФГАУ. 2006. -332 с.
12. Фесенко Н. И. Система работы по формированию экономических знаний у старших дошкольников // Молодой ученый. –2018. –№ 46.2. –С. 103-106.
13. Фромм Э. Человек одиночек /пер Р. Облонской //Иностранная литература. -1966, -№1. - С.230-233.
14. Юсупов А. Х. Тежамкорлик-энергиядан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишидир//Иқтисод ва инновацион технологиялар. -2022. –№1. - Б.182-188.